

**MAKTABGACHA YOSH DAVRDA MANTIQIY VA
KREATIV TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY
PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI VA ASPEKTLARI**

Asqarov Anvarjon Rahimjon o‘g‘li
Farg‘ona davlat universiteti, o‘qituvchi

Kamilova Feruza Xasanovna
Farg‘ona davlat universiteti, psixologiya yo‘nalishi talabasi

ANNOTATSIYA

Matabgacha yosh davr bolaning ham aqliy ham jismoniy jihatdan yutuk shaxs bo‘lib yetishishida asosiy zamin hisoblanadi. Shunday ekan Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini rivojlantirish ularga tashqi olam haqidagi bilim, ko‘nikma va malakalarni to‘g‘ri shakillantirish pozitiv kayfiyatni taminlash muhimdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma’lum bir xulosa chiqara olish, shuningdek yetarli darajada bilish jarayonlarini rivojlantirish asosiy jabhalardandir.

KIRISH

Hammamizga ma’lumki, hozirda maktabgacha ta’lim tashkilotlari taraqqiyotining asosiy negizidir, shunday ekan maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy taraqqiyoti chuqur ildiz yoyib, palak yozgan bo‘lsa, daraxt misoli davlat gullab yashnaydi, hech qachon uni hech qanday yod g‘oyalalar zabit eta olmaydi. Hurmatli Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev Miromonovich bu sohada tub burilishlar qildi, har bir viloyatdagagi, tumandagi maktabgacha ta’lim muassasalari soni, sifati oshishi bilan birga, ularga bo‘lgan talab darajasini ham anchagina oshirdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Maktabgacha yoshidagi bolalar shaxsining shakillanishiga ko‘ra bu davrni uch qismga ajratish mumkin: Birinchi davr–bu 3–4 yosh oraligida bo‘lib, bola emotsiyal jihatdan o‘z–o‘zini boshqarishning mustahkamlanishi bilan bog‘liqdir. Ikkinci davr–bu 4–5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z – o‘zini boshqarish. Uchinchi davr esa shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shaklanishi bilan harakterlanadi.

Maktabgacha yosh davrda bolaning ahloqiy tushunchalar borgan sari qat’iylasha boradi. Ahloqiy tushunchalar manbai bo‘lib ularning ta’lim –tarbiyasi bilan shugullanayotgan kattalar, shuningdek, tengdoshlari ham bo‘lishi mumkin. Ahloqiy tajribalar asosan muloqot, kuzatish, taqlid qilish jarayonida, shu bilan birga

kattalarning ayniqsa onalarning maqtovi va tanqidlari orqali o'tadi va mustahkamlanadi. Bola doimo baho, ayniqsa maktov olishga harakat qiladi. Bu baho va maqtovlarning bola shaxsidagi muvaffaqiyatga erishishga harakat xususiyatining rivojlanishida, shuningdek, uning shaxsiy hayoti, hamda kasb tanlashida ahamiyati juda katta.

Har bir bola o'zicha kreativ va yaratuvchi, har birida alohida qobiliyatlar mujassam. Bolalarning ma'lum bir darajadagi qobiliyatlarini rivojlantirish uchun tarbiyachi va bola ta'lim tarbiyasi bilan shug'llanuvchi barcha shaxslar birdek harakat qilishlari lozim.

Shaxsninig aqliy taraqqiyoti bilish jarayonlari muhim o'rin tutadi

Bolaga tarbiyachi tomonidan yangi berilayotgan ma'lumotlarga qiziqtira olish muhim. Qiziqish esda qoldiriladigan materialni, shaxsnинг o'zi va jamiyat uchun ahamiyatini tushunish bilan bog'liq bo'lsa, esda qoldirish samaraliroq bo'ladi. Diqqat esda mustahkam saqlab qolishning zaruriy shartidir. Diqqat esga olish lozim bo'lgan materialga nechog'li kuchli sur'atda qaratilgan bo'lsa, u shunchalik tez va puxta esda qoladi.

Tez, ravshan va raso, aniq idrok qilingan narsa, odatda, esda tez va mahkam saqlanib qoladi. Shuning uchun ham idrokning sifatini belgilovchi shart ayni vaqtida xotiraning sifatini ham, ya'ni uning tezligini va puxta bo'lishini ham belgilaydi. Shunisi ham muhimki, materialni idrok qilishda qancha ko'p sezgi organlari ishtirok etsa, material ham shuncha tez va puxta esda qoladi. Masalan, o'quvchilar o'quv materialini eshitish organlari vositasi bilan idrok qilib qolmay (faqat o'qituvchining darsiga, sheriklarining baland ovoz bilan o'qishiga qulq solish bilangina cheklanib qolmay), balki ko'rish organlari vositasi bilan (darslikni o'qish, undagi rasmlarni ko'rish, turli ko'rsatma qurollardan foydalanish), shuningdek, muskul harakatlari (yoziб olish, so'zlarni baland ovoz bilan aytish, o'z ichida shivirlab aytish) vositasi bilan ham idrok qilganlarida, bu materialni yaxshi va mustahkam eslab qoladilar.

Bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishning bir nechta shartlari mavjud:

- Avvalo bola jismoniy va psixologik jixatdan sog'lom bo'lishi;
- Mustaqil va erkin ishlashi uchun imkoniyatlarning mavjudligi;
- Faoliyatlar vaqtida bolaning erkin va mustaqilligini ta'minlash;
- Iliq do'stona va xavfsiz muhit;
- Oila va maktabgacha ta'lim tashkilotining birgalikdagi hamkorligi.

Ijodiy moyillik 1-2 yoshda paydo bo'lishi mumkin. Kimdir musiqiy ritmni aniq ushslashni va unga qanday o'tishni biladi, kimdir kuylaydi, kimdir chizadi. 3-4 yoshida agar bola hech qanday maxsus moyillik ko'rsatmasa ham, ota-onalar ijodiy mashqlar va o'yinlarga alohida e'tibor berishlari kerak.

Bolalarda kreativlikni rivojlantirishning turli xil usullari mavjud:

-Rasm;

- stol usti o'yinlari;
- mozaikalar, jumboqlar va konstruktorlar;
- tabiat va atrofdagi dunyo haqida suhbatlar;
- loy, plastilin, gipsdan modellashtirish;
- hikoyalar, ertaklar va she'rlarni o'qish;

Bolaning kreativlik qobiliyatini rivojlantirish bolaning kelajakda barkamol inson bo'lib kamol topishiga yo'l ochib beradi. Shuning uchun ham qobiliyatlar mактабгача bo'lgan yoshdayoq takomillashtirib, rivojlantirib boriladi. Buning uchun esa bolada mavjud bo'lgan qobiliyatlar aniqlanadi, ma'lum yo'nalishga solinadi. Bu jarayonda maktabgacha ta'lim tashkilotlari va oila hamkorlikda ishlashi talab etiladi.

Biz bugun maktabgacha ta'lim sohasida eng dolzarb masala, ya'ni bola psixologiyasidagi o'zgarishlarga to'xtaladigan bo'lsak, bola ona qornidayoq o'z ong faoliyati uchun manbalarni yig'a boshlaydi, atrof-muhitdagi shovqin-suronli jarayon yoki tinch holat bolaning rivojlanishiga ta'sir etadi, shu sababli yosh onalarga farzandlarining bog'cha yoshidayoq aqliy qobiliyatini oshirish uchun ularga va hattoki 3 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalarga ham psixolog olimlar tomonidan psixologik salbiy o'zgarishlarni yengish uchun piyoda yurish tavsiya etiladi, uning foydalariga to'xtaladigan bo'lsak:

1. 25 daqiqalik yomg'ir ostida yoki ajoyib havodagi sayr bolani kayfiyatini ko'taradi, shirin xotiralar og'ushiga solib ijodiy fikrlashga undaydi.

2. 35 daqiqalik piyoda yurish esa boladagi muhit o'zgarishidagi, insonlararo tushkunlikni yengishga yordam beradi.

3. 45 daqiqalik piyoda yurish amerikalik olimlar tomonidan shamollashni yengishga yordam berishi aytib o'tiladi.

4. 60 daqiqa farzandingizni piyoda olib yurish olimlar tomonidan aniqlanishicha, yosh bolalarda va kattalarda yurak xastaliklarini oldini oladi. Bundan tashqari bolalarga oltin 20 daqiqalik psixologik oltin qoidalar ham uni olg'a yurishga undab, har qanday ruhiy holatni yengishga ko'maklashadi. Bu qoidalar quyidagilardan iborat:

Kuniga bolani 20 daqiqa sport bilan mashq qildirish uni salomatligini mustahkamlaydi.

20 daqiqalik kunlik mutolaa uning dunyoqarashini oshiradi.

20 daqiqa diqqatni jamlashga undashga o'rgatish ijodiy qobiliyatlarini tartibga solishga ko'maklashadi.

20 daqiqa yolg'iz qoldirib, o'z ishlarini tahlil qilishga o'rgatish muammolarini mustaqil yechishga o'rgatadi.

20 daqiqa mashg'ulotlar orasidagi dam olish uni toliqishdan, ishtiyoqsizlikdan asraydi.

Bundan tashqari bog‘cha yoshidagi bolalarning asab tizimini ishlashini me’yorga solishda B1, B2 kabi vitaminlarga boy mahsulotlar : tuxum, pishloq, olma, qovoq, baliq, karam, go‘ja oshi, arpa nonini ham taomnomaga kirtsak, nur ustiga a’lo nur bo‘lardi. Bolalardagi ong ostidagi kuchli energiyani hosil bo‘lishi, injiqlik kabi o‘zgarishlar , 5 yoshda ham umuman onadan ajralmaslik hissini davolashni ayrim yo‘llari bor, masalan bola ko‘p miqdorda shirinlik iste’mol qilishi kuchli energiya hosil qilib, sho‘xliklarning oshishiga sabab bo‘ladi, ona ongi ostida farzandini hech kimga ishonmaslik hissi bolani onadan ajralishiga to‘sinq bo‘ladi. Bu kabi holatlarga bog‘cha tarbiyachi psixologlari to‘g‘ri yondashishsa , albatta biz ko‘zlangan maqsadga erishamiz va yosh avlodni yurtimiz sha’nini oqlashiga o‘zimizning ulkan hissamizni qo‘shgan bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Rahimjon o‘g‘li, A. A. (2022). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI. SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 1(2), 116-119.
2. Asqarov Anvarjon Rahimjon o‘g‘li. (2022). MAK TABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING AQLIY TARAQQIYOTINING RIVOJLANISHIDA O‘YIN RIVOJLANTIRUVCHI FAOLIYAT SIFATIDA. Uzbek Scholar Journal, 5, 207–209.
3. Askarov, A. (2022). CREATIVE THINKING IN PRESCHOOL SOCIAL PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF DEVELOPMENT. Science and innovation, 1(B8), 87-91.
4. Asqarov, A. (2022). MAK TABGACHA YOSH DAVRDA KREATIV TAFAKKURNI RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK ASPEKTLARI. Eurasian Journal of Academic Research, 2(6), 882-883.
5. O‘G‘Li, A. A. R. (2022). XOTIRANI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS USULLARI. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(6).
6. Rahimjon o‘g‘li, Asqarov Anvarjon. "MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA MANTIQIY TAFAKKUR RIVOJLANISHINING IJTIMOIY PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI." SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI 5.2 (2022): 116-119.
7. Rahimjon o‘g‘li, A. A., & Adxam o‘g‘li, X. A. (2023). INKLYUZIV TA‘LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH.
8. Xomidov , A. A. o‘g‘li, & Asqarov A. R. o. (2023). INKLYUZIV TA‘LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH. GOLDEN BRAIN, 1(11), 299–302.

9. Xomidov , A. A. o‘g‘li, & Asqarov A. R. o. (2023). INKLYUZIV TA‘LIM OLAYOTGAN BOLALARNI TAFAKKUR SOHASINI O‘RGANISH. GOLDEN BRAIN, 1(11), 299–302.
10. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3178>
11. Asqarov Anvarjon Rahimjon o‘g‘li, & Aminjonov Isomiddin Zaylobidin o‘g‘li. (2023). KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA O‘Z-O‘ZINI ANGLASHDA IJTIMOIYLASHUVNI O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. GOLDEN BRAIN, 1(12), 94–98.